Respublika
Ta'lim Markazi

unicef

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI

MILLIY O'QUV DASTURI



UMUMIY O‘RTA TA‘LIMDA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI O‘QITISH
UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARINING 8-11-SINFLARI UCHUN HUQUQIY TA‘LIM KONSEPSIYASI

1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. “Huquqiy ta‘lim” - (umumiy o‘rta talimning 8-11-sinflari uchun yagona nom bilan ataladi keying o‘rinlarda “Davlat va huquq asoslari”) fani Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) xalq ta‘limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala mamlakat rahbarining 2019 – yil 9 – yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

2. Konsepsiya umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos Huquqiy ta‘lim fani konsepsiyasi mazkur fanni yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

3. Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” Konsepsiyasi hamda xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan hujjatlari; “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, (O‘RQ, 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son) 2019-yil 9-yanvardagi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF – 5618-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomilashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorlari, qonunlar va ta‘lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari, shuningdek, boshqa tegishli qonun hujjatlariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5987-son Farmonida ham bu borada tegishli vazifa belgilangan.

- maktab yoshidanoq bolalarni huquqiy fanlarni chuqur o‘zlashtirishga, Konstitusiya va qonunlarni puxta o‘rganishga;
- umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sifatli, xalqaro standartlarga mos yuridik darsliklarning yaratilishiga;
- huquqshunoslik fanlaridan ta‘lim beruvchi o‘qituvchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar oshishi natijasida ularning malakasini doimiy oshirib borishi uchun mustahkam zamin yaratiladi;

4. Konsepsiya umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartida belgilangan talablarning negizi hisoblanadi.

5. Konsepsiya “Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fanining o‘rganish bosqichlarini, o‘quv fani bo‘yicha ta‘lim mazmuni va malaka talablarini belgilaydi.

6. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Finlyandiya, Germaniya, Singapur, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH va boshqa davlatlar)ning ta‘lim sohasidagi yutuqlaridan foydalanib, milliy xususiyatlarni va respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda ta‘lim sohasini takomillashtirishdan iborat.

2-bob. KONSEPSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

7. Konsepsiyaning asosiy maqsadi:

O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, huquqiy fanlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan rejalarini ishlab chiqish va uning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

huquqiy ilmiy ishlarni takomillashtirish, huquq sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari sifatini oshirish choralarini ko‘rish;

iqtidorli, bilimli va salohiyatli yoshlarni ilmiy ishlarga yo‘naltirish hamda huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolarini tadqiq etish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish;

voyaga yetmaganlarni huquqiy tarbiyalash, amaldagi qonun hujjatlarini ular ongiga singdirish va huquqiy me‘yorlar asosida hayot kechirishga o‘rgatish;

kadrlar bilan ta‘minlash, ilmiy-metodik ta‘minotiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish asoslari va mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

8. Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

“Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fanini joriy etishda O‘zbekiston Respublikasining tarbiya sohasidagi ustuvor yo‘nalishlariga amal qilish;

“Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fani ilmiy-metodik ta‘minotiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni ishlab chiqish;

o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

o‘quvchi-yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllntirish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarini buzishga olib keladigan hatti – harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizim, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;

faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

yosh avlodda mas‘uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e‘tiqod, ma‘rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik kabi fazilatlarni tarbiyalash.

3-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUQUQIY TARBIYA SOHASIDAGI USTUVOR YO‘NALISHLARI

9. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining huquqiy tarbiya sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir bilimlarning zarur tizimini shakllantirish, fuqarolarni huquqiy voqelikning joriy va dolzarb masalalari yuzasidan xabardor qilish;

ikkinchidan, fuqarolarda adolat, tenglik, qonuniylik kabi prinsiplarga nisbatan hurmatni shakllantirish;

uchinchidan, fuqarolarga qonunga muvofiq hulq-atvor ko‘nikmalarini singdirish;

to‘rtinchidan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ularda huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik munosabatini tarbiyalash;

beshinchidan, qonunda belgilangan tartibda o‘zining, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning manfaatlari va huquqlarini faol himoya qilishga ehtiyojni va bunday qobiliyatni shakllantirish va boshqalar;

oltinchidan, o‘quvchilarni jismoniy, ruhiy va ma‘naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish.

4-bob. DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI O‘QITISHDAGI XORIJIY TAJRIBALAR

10. O‘quv dasturini shakllantirishda Buyuk Britaniya, AQSH, Hindiston, Rossiya, Finlandiya, Kanada, Yaponiya va boshqa davlatlar tajribalari o‘rganildi:

Buyuk Britaniya tajribasi bo‘yicha “Citizenship” (Fuqarolik) fani o‘quvchilarga demokratiya, hukumat va qonunlarning tashkil etilishi va

insonlarga beradigan ko‘magi haqidagi tushunchalarni va bilimlarni o‘rganishiga asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bu fan bo‘yicha ta‘lim berish o‘quv jarayonining uchinchi va to‘rtinchi bosqichida amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda fanni o‘qitish o‘quvchilarning demokratiya, hukumat va fuqarolar mas‘uliyati va huquqlarini tushunishini rivojlantirishi kerak. O‘quvchilar o‘zlarining bilimlari va tushunchalarini jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish, debatlarga kirish, o‘z qarashlarini shakllantirish, muammolarning kelib chiqish sabablari uchun argumentlar bera olish qobiliyatini rivojlantirish uchun ishlatishlari zarur. To‘rtinchi boshqichda esa o‘qitish ta‘lim dasturining oldingi bosqichi asosida, ya‘ni “key stage 3”, o‘quvchilarning demokratiya, hukumat, fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqidagi tushunchalari asosida shakllantiriladi. O‘quvchilar tadqiqot strategiyasi, jarayonlarni shakllantirish va o‘zlarining xulosalarini shakllantirish uchun kerakli argumentlarni ishlata olish qobiliyatlarini rivojlantirishlari zarur. Ular birgalikda muammolarni hal qilish va o‘z jamiyatlariga hissa qo‘shish uchun turli yo‘llarni shakllantirishlari va tajriba qilib ko‘rishlari zarur.

Germaniyada huquqiy bilimlar berish o‘rta maktabni (Gimnaziya) tugatgandan so‘ng boshlanadi. Dastlabki ikki yil asosan fuqarolik, jinoiy va jamoat huquqi bo‘yicha majburiy o‘quv kurslari o‘qitiladi. Dars jarayonlarida Sokratik metodni qo‘llagan holda dars o‘tiladi. Huquqiy bilimlar bilan bir qatorda ritorik mashg‘ulotlardan, qonun tarixi va asosiy siyosatshunoslikdan huquq va sotsiologiya, muzokaralargacha bo‘lgan bilimlar ham berib boriladi. Egallangan ko‘nikmalarni amaliyot yoki sinovlar orqali mustahkamlanadi.

Finlandiya tajribasiga ko‘ra, birinchi bosqichda, ya‘ni kichik o‘rta maktablarda inson huquqlarini umumiy o‘rgatishga harakat qilinadi. Ya‘ni o‘quvchilar huquq o‘zi nima? Inson huquqlari nima? degan savollarga javob olishadi va ko‘nikmalarini bosqichma bosqich kengaytirib boriladi. Ko‘p hollarda, boshqa chuqur o‘rgatiladigan fanlar bilan umumlashtirgan holda amalga oshiriladi. Masalan, din bo‘yicha fanlar bilan, falsafa, tarix fanlar bilan birgalikda olib boriladi. Ya‘ni huquqning yoki inson huquqlarining din bilan aloqador bo‘lgan qismini din bo‘yicha fanlar bilan birgalikda, masalan, fanda barcha dinlarning o‘ziga xosligi tushuntirilgan holda, ularning tengligi

va bu huquqiy jihatdan belgilab qo‘yilganligi ham birgalikda uqtiriladi. Ikkinchi bosqichga kelib o‘quvchilar inson huquqlari bo‘yicha yetarlicha tushunchalarga ega bo‘lib olishadi. Endi bu fanlarni o‘qitish chuqurlashadi. Xalqaro konvensiyalar bilan bog‘langan holda o‘rgatila boshlanadi. Bundan tashqari yana bir muhim jihatlaridan bittasi, huquq bo‘yicha nodavlat tashkilotlar va maktablar o‘rtasida aloqalar rivojlantirilyapti. Aynan shu davrdagi, ya‘ni yuqori sinflardagi o‘quvchilar bilan shu asnoda ishlash yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Bunda, albatta, o‘quvchilarning bu fanni o‘rganish va bunga qiziqish darajasi oshadi. Chunki, huquq tashkilotlari maktab

o‘quvchilari bilan birgalikda amaliy mashg‘ulotlar, konferensiyalar, turli xil boshqa tarzdagi debatlar orqali fikr almashishlari mumkin.

Rossiyada Davlat va huquq asoslarini maklablarda o’rganish huquqiy ong va huquqiy madaniyatni, ijtimoiy-huquqiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsiy rivojlanish, fuqarolik mas’uliyati va o’z-o’zini hurmat qilishni tarbiyalash; intizom, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, demokratik huquqiy institutlar va qonun ustuvorligi; huquqning asosiy tamoyillari, normalari va institutlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish; o‘quvchilarning quyidagi kompetensiyalarini shakllantirish: qonun qoidalari asosida amaliy muammolarni hal qila olish; huquqiy hujjatlarning ayrim turlarini mustaqil tayyorlash; huquqiy mavzularni tadqiq etish; bahs-munozaralar o’tkazish singari maqsadlarga erishishni ko‘zda tutgan. Bevosita fanni o‘rgatishda o’rta maktab o’quvchilari huquqiy ta‘lim bo‘yicha o’z nuqtayi nazarini ifodalashni, bahslashishni, o’z pozitsiyalarini nomoyon eta olishni, to’ldirishni yoki tuzatishni o’rganadilar. Bunday tadbirlar o’quvchilarning huquq bo‘yicha muloqot ko’nikmalarini egallashlari yordam beradi. Davlat va huquq tarmoqlarning nazariy asoslarini o’rganish ma’ruza, seminar, qonunchilik bilan ishlash, huquqiy hujjatlar (tushumlar, ishonchnoma, da’vo arizasi, mehnat shartnomasi) tuzish, huquqiy muammolarni hal qilish kabi o’quv shakllaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida huquqni o‘rganish boshqa ko‘plab mamlakatlardagi Davlat va huquq asoslaridan farq qiladi. Turli mamlakatlarda talabalar o‘rta maktabni yoki o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng darhol Davlat va huquq asoslari bo‘yicha o‘qishni boshlaydilar. Ammo AQShda huquq sohasi kuchli akademik-ilmiy sohadir. Asosiy huquqiy ta‘lim Inson huquqlari bo‘yicha shakllantirilgan. Inson huquqlari bo‘yicha alohida o‘quv dasturi mavjud. Inson huquqlari bo‘yicha o‘quv dasturi ham mavjud. U 3 ta asosiy elementdan iborat: *birinchidan*, inson huquqlari to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarni egallash; *ikkinchidan*, inson huquqlari qadriyatlarini aks ettiruvchi qadriyat, munosabat va xatti-harakatlarning rivojlanishini ta‘minlash; *uchinchidan*, ijtimoiy harakatlarni rag‘batlantirish va faol

fuqarolikka ega bo‘lish huquqini har kimning huquqlarini hurmat qilishni rivojlantirish.

Hindiston tajribasiga ko‘ra, huquqiy ta‘lim - bu huquqshunos mutaxassis bo‘lish uchun huquq subyektlarining bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishni anglatadi. Bu qonun amaliyoti uchun o‘qitiladigan fanlardan biri sifatida huquqni o‘qitishni va kasb a‘zosi bo‘lishni anglatadi. Qonun *kasb-hunar* va *liberal* ta‘limni o‘z ichiga oladi, ya‘ni, kasbiy mahoratga ega bo‘lish, shuningdek, qadriyatga yo‘naltirilgan, ijtimoiy-madaniy ta‘limga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Huquqiy ta‘lim nafaqat ijtimoiy nazorat vositasi, balki o‘zgarishning muhim vositasi bo‘lgan inson huquqlari va qadriyatlari konsepsiyasi bilan singdirilgan madaniyatli fuqarolarga bo‘ysunadigan

madaniyatni yaratish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarish vositasi sifatida ham ishlaydi.

Kanadaning huquqni o‘qitish bo‘yicha o‘quv dasturini kuzatadigan bo‘lsak, ushbu dastur quyidagilarni nazarda tutadi: qonunlarni va huquqiy tamoyillarni chuqur tushuntirib berish, shu bilan birga o‘zining bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati; huquqiy tamoyillarni chuqurroq o‘rganish va ushbu o‘rganishni amaliy tushunchalar va qo‘llanmalarga aylantirish uchun h real vaziyatlardan foydalangan holda ishlashga asoslangan ta‘lim kontsepsiyasini qabul qilish; doimiy o‘zgaruvchan va qiyin yuridik xizmatlar bozoriga qo‘shilishga va an‘anaviy yuridik amaliyotdan tashqarida bo‘lgan professional imkoniyatlarga tayyorlash.

5-bob. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

11. Quyidagilar Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi:

Huquqiy asoslari:

shaxs tarbiyasiga oid milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish.

Amalga oshirish tizimi:

vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, rag‘batlantirishni tashkil etish;

konsepsiya samaradorligini monitoring qilish.

Mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlash:

“Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fanidan dars beradigan pedagoglarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish;

Ilmiy-metodik asoslari:

davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

“Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fani o‘quv-metodik majmualarini, shu jumladan ta‘lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish;

“Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fani darsliklarini yaratishda innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkurni shakllantirish;

umumta‘lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

6-bob. DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI (HUQUQIY TA‘LIM) FANI BO‘YICHA QO‘YILADIGAN TALABLAR

12. O‘quv-metodik majmualarni yaratishning asosiy vazifalari:

o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish tamoyillari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma‘naviy merosga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;

davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o‘quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkurni shakllantirish;

umumta‘lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

13. O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish tamoyillari:

o‘quv-metodik majmualarni ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yaratish;

o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olish;

o‘quvchilarda vatanga sadoqat va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish;

o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirish.

14. O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar:

Didaktik talablar:

o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishi;

matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish uchun xizmat qilishi;

qiziqarli, lo‘nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo‘lishi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

olingan bilimlar kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ta‘minlashga, amaliyotda qo‘llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

rasmlar ko‘rinishidagi illustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan boyitilgan bo‘lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta‘riflar va shu kabilar lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi.

Ilmiy-metodik talablar:

fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi;

o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta‘minlanishi;

o‘quv fani mavzulari o‘zbek adabiy tili qoidalariga to‘liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

O‘zbekiston xalqi mentalitetiga mos bo‘lgan illustrasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalanishi;

o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatadigan pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi;

kasb-hunarga yo‘naltiruvchi matn va rasmlar, lug‘atlar, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan (loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan) topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma‘lumotlar, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzularining o‘quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog‘liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo‘lishi.

Estetik talablar:

matnlar o‘quvchiga ma‘lum ijobiy hissiy ta‘sir o‘tkazishi va o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi;

yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo‘lishi;

bo‘lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta‘minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi.

Gigienik talablar:

matn va illustrasiyalar sanitariya qoidalari, gigiena talablariga mos bo‘lishi;

harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) “Ta‘lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi haqida”gi umumiy texnik reglament talablariga mos bo‘lishi.

7-bob. KONSEPSIYADAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

15. Kutilayotgan natijalar:

Konsepsiya umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo‘lish;

Konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o‘quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta‘sir etadi;

“Davlat va huquq asoslari” (Huquqiy ta‘lim) fanini o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta‘lim mazmuni va malaka talablari me‘yorlari aniqlashtiriladi;

Shu o‘rinda yoshlarda huquq haqida bilim va ko‘nikmalarni qanday hajmda shakllantirish va uni qanday yetkazish kerak, degan savol tug‘iladi. umumiy ta‘lim maktabi doirasidagi huquqiy tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda tatbiq etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo‘lgan umumiy ijtimoiy rollarni (davlat fuqarolari, oila a‘zosi, o‘quvchi,

ishchi, xizmatchi, uy-joy, xonadon ijarachisi yoki egasi, fuqarolik-huquqiy bitimlari: oldi-sotdi, ijara bitimlari sub‘ektlari va h.k.) ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Ta‘lim muassasalarida yoshlarning qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning umumiy madaniyatini, huquqiy ongini yuksaltirish borasida bir qator kamchiliklar borki, ularni hal etmasdan turib bu borada muayyan ijobiy natijalarga erishib bo‘lmaydi. Xususan, o‘quvchilarda mehnatni va mehnat ko‘nikmalarini hurmat qilish hissini singdirish, qonunchilik asoslarini tushuntirishga qaratilgan aniq, chora-tadbirlarning yo‘qligi kabi kamchiliklarni hal etish bu boradagi faoliyatning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI BO‘YICHA O‘QUV DASTURLARI

TUSHUNTIRISH XATI

Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardanoq O‘zbekiston o‘z oldiga huquqiy – demokratik davlat qurish vazifasini maqsad qilib qo‘ydi. Bizga ma‘lumki, demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biri, inson va uning sha‘ni, qadr – qimmatining oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilishidir. Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodning yuqoridagi talablarga javob bera oladigan bo‘lishi uchun ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Globallashuv sharoitida inson ongi uchun kurash tobora kuchayib borayotgan davrda, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish masalalari kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Shu ma‘noda mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan ishlarning mantiqiy davomi sifatida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy ongini oshirish masalalari ham alohida tamoiyl sifatida o‘z aksini topdi.

Davlat va huquq asoslari o‘quv fanini o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan iboratdir.

Davlat va huquq fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

o‘quvchilarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilishga hamda ularga rioya qilishga o‘rgatish;

ta‘lim-tarbiya jarayonida davlat va huquq asoslari fani mazmuniga oid huquqiy ong hamda huquqiy ma‘naviyatga ega bo‘lish;

mantiqiy fikrlay olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash salohiyatini tarkib toptirish, ularda milliy umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashi, ulardan kundalik faoliyatlarida foydalanishga o‘rgatish;

fuqarolik mas‘uliyati va o‘z-o‘zini hurmat qilishni tarbiyalash.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning vazifalari:

konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilishga hamda ularga rioya qilishga o‘rgatish;

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni, ijtimoiy-huquqiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsiy rivojlanish ko‘nikmalarini singdirish;

huquqning asosiy tamoyillari, normalari va institutlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish;

fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish;

intizom, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, demokratik huquqiy institutlar va qonun ustuvorligi haqidagi bilimlarni yetkazish.

Dasturning yana bir jihati shundan iboratki, bunda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashga e‘tibor qaratilgan.

O‘qituvchi darsni tashkil etishda o‘qitish usulining turli (ma‘ruza, og‘zaki bayon qilish, amaliy topshiriq, ko‘rgazmalilik va hokazo) shakllaridan foydalanishi mumkin. Shuningdek, darsni tashkil qilishda dars berishning turli noan‘anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ularni faollashtiruvchi va jadallashtirishga asoslangan interfaol metodlar, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Shu bilan bir qatorda tezlik bilan rivojlanayotgan axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidan o‘qituvchi tomonidan dars jarayonida ijodiy foydalanishi dars samaradorligini oshishiga va o‘quvchilarning nafaqat fanga nisbatan balki axborot texnologiyalariga ham qiziqishi ortib boradi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-11-sinflari doirasida Davlat va huquq asoslari faniga oid bilimlarni o‘rganishni taqozo etadi. Davlat va huquq asoslari fanini o‘rganishga qo‘yilgan talablar (8-11-sinflar) o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, ruhiy xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi darajalariga mos bo‘lishi lozim.

8-sinf Davlat va huquq asoslari (34 soat)- Shaxs, jamiyat, davlat, axloq va huquq, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik, voyaga yetmaganlarning huquqlari va burchlariga doir bilimlarni o‘rganadi.

9-sinf Davlat va huquq asoslari (34 soat)- Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat, Konstitusiya va demokratiya, Konstitutsiya va inson huquqlari, Davlat hokimiyati va davlat organlariga doir bilimlarni o‘rganishadi.

10-sinf Davlat va huquq asoslari (34 soat)- Jamiyat va inson huquqlari, Oilaviy huquqiy munosabatlar, Fuqarolik huquqiy munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasi va xalqaro hamjamiyatiga oid bilimlarni o‘rganishadi.

11-sinf Davlat va huquq asoslari (34 soat)- Mehnatga oid huquqiy munosabatlar,ma‘muriy huquqiy munosabatlar,jinoyat va jazo, tabiatni huquqiy muhofaza qilishga oid bilimlarni o‘rganishadi.

Dastur mavzularini o‘rganish uchun ajratilgan soatlar miqdori o‘qituvchi ixtiyoriga ko‘ra, maktab metod birlashmasi va viloyat (shahar, tuman) xalq ta‘limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarning Davlat ta‘lim standartini o‘zlashtirish yuzasidan o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra o‘quvchilar bilimida

aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o‘zgartirish va metodik kengash yig‘ilishida tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

Davlat va huquq asoslari fani chuqur o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan ta‘limda mazkur dasturda berilgan mavzular qo‘shimcha manbalardan foydalangan holda kengaytirib o‘qitiladi. Ixtisoslashtirilgan ta‘limga ajratilgan soat va mavzular (*) belgisi bilan belgilanadi.

Davlat va huquq asoslari fanlari chuqurlashtirib o‘qitiladigan o‘quvchilar huquqiy bilimlarga doir bilimlarni huquqiy manbaalar hamda amaliyotga bog‘liq holda chuqurlashtirilib o‘qitiladi.

X SINF

I bob. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI
(9 soat)

1. Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni

Jamiyat, shaxs va inson huquqlari tushunchasi. Inson manfaati va jamiyat manfaatining uyg‘unligi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - inson huquqlari kafolati.

2. Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi

Shaxsning huquqiy maqomi, tavsifi va turlari. Teng huquqlilik. Gender tenglik. Zo‘ravonlikni oldini olish.(Amaliy dars).

3. Inson huquqlari va huquq ustuvorligi

Huquq ustuvorligi tushunchasi. Huquq ustuvorligi - inson huquqlarini ta‘minlashning garovi. Inson huquqlari madaniyati. Adolatli jamiyatda inson huquqlari-ombudsman

4. Inson huquqlari va ijtimoiy himoya

Ijtimoy himoya tushunchasi. Aholini ijtimoiy himoyalash. Ijtimoiy himoyalashda insonparvarlik tamoyilining o‘rni.

5. Inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilik

Milliy qonunchilik tizimi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro me‘zonlarning milliy qonunchilikda aks etishi. Axborot davrida inson huquqlari himoyasi.

6. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar

Inson huquqlarini himoya qilishda davlat organlari va milliy institutlar. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat organlarining o‘rni. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyati (Amaliy dars)

7. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish. Fuqarolikni yo‘qotishning huquqiy asoslari.Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlari.

8. Ijodiy faoliyat

9. Nazorat ishi

II. bob. OILAVIY - HUQUQIY MUNOSABATLAR
(7 soat)

10. Jamiyatda oilaning o‘rni

Oila – jamiyat tayanchi. Jamiyatda oilaviy munosabatlarni tartibga solish. Oiladagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga oid qonunchilik

11. Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari

Nikohning yuridik asoslari. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, nikoh tuzish tartibi. Nikohni tuzishga mone‘lik qiladigan holatlar. Nikoh tugatilishining oqibatlari. (Amaliy dars).

12. Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi

Er-xotin huquqiy maqomining vujudga kelishi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari. Oilada ota-onaning huquq va majburiyatlari.

13. Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi. Bolaning himoyalanish huquqi. Bola huquqlarining kafolatlari. Farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlari.

14. Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari

Aliment tushunchasi. Aliment turlari. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv.

15. Ijodiy faoliyat

16. Nazorat ishi

III bob. FUQAROLIK- HUQUQIY MUNOSABATLAR (10 soat)

17. Fuqarolik huquqi asoslari

Fuqarolik huquqiy - munosabatlar tushunchasi. Fuqarolik - huquqiy munosabatlar vujudga kelishi. Bitimlar tushunchasi. (Amaliy dars)

18. Fuqarolik -huquqiy munosabat sub‘yektlari va ob‘yektlari

Fuqarolik huquqida shaxslar tushunchasi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub‘yektlari va ob‘yektlari tushunchasi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarining subyektlari va obyektlarining turlari.

19. Mulkiy va nomulkiy munosabatlar

Mulkiy munosabatlar tushunchasi. Mulk huquqi tushunchasi. Mulk shakllari. Nomulkiy munosabatlar va ularning huquqiy asoslari.

20. Majburiyatlar

Majburiyat tushunchasi. Majburiyatning taraflari. Majburiyatlarning vujudga kelishi. Majburiyatlarning bajarilishi.

21. Majburiyatlarning turlari.

Shartnomada majburiyatlarning ifodalanishi. Majburiyatlarning ayrim turlari.

22. Iste’molchilar huquqlari

Iste’molchilar tushunchasi. Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish. Iste‘molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari. Moliyaviy savodxonlik (Amaliy dars)

23. Intellektual mulk

Intellektual mulk tushunchasi. Intellektual mulk ob‘ektlari. Mualliflik huquqi.

24. Vorislik

Vorislik tushunchasi va vorislik huquqi. Meros va merosxo‘rlik tushunchasi. Vasiyatnomaning huquqiy asoslari.

25. Ijodiy faoliyat

26. Nazorat ishi

IV bob. O‘ZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT (8 soat)

27. Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi

Xalqaro hamjamiyatning o‘ziga xosligi. Xalqaro hamjamiyatning tuzilishi. Xalqaro munosabatlarni vujudga keltiruvchi omillar

28. Xalqaro huquq

Xalqaro huquqning vujudga kelishi va o‘ziga xos jihatlari. Xalqaro huquqning maqsadi. Xalqaro huquq manbalari. Xalqaro huquq va milliy huquq.

29. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik

Birlashgan Millatlar Tashkilotining paydo bo‘lishi. Xalqaro hamjamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash. O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi.

30. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari**.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan tashkilotlari.Bola huquqlarini himoya qilishda BMT faoliyati. (Amaliy dars).

31. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni

O‘zbekistonning tashqi siyosati. O‘zbekistonning xalqaro hamkorligi. Xalqaro hamjamiyat rivoji uchun qo‘shayotgan hissasi.

32. O‘zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar

O‘zbekiston o‘z fuqarolarini chet elda himoya qilishi. Chet el fuqarolarining huquqlari. Xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning himoyalanishi. (Amaliy dars)

33. Ijodiy faoliyat

34. Nazorat ishi